

## O'SMIRLARDA AGRESSIVLIKNING YUZAGA KELISHIGA TURTKI BO'LUVCHI OMILLAR

*Sharopova Durдона Nosirovna*

*Buxoro viloyat Buxoro tuman 7-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'smirlarda agressivlikning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi psixologik, ijtimoiy va oilaviy omillar yoritiladi. Shuningdek, agressiv xulq-atvorning oldini olish va uni kamaytirishning samarali usullari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** o'smirlik, agressivlik, tajovuzkorlik, emotsional holat, stress, oilaviy muhit, psixologiya, xulq-atvor.

### KIRISH

O'smirlik davri inson rivojlanishining murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda emotsional beqarorlik va xulq-atvordagi o'zgarishlar tez-tez kuzatiladi. Ayniqsa, agressivlik holatlari o'smirlar orasida dolzarb psixologik muammolardan biri hisoblanadi.

Psixologik jihatdan agressivlik ichki norozilik, stress yoki emotsional zo'riqishning tashqi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. O'smirlar o'z his-tuyg'ularini to'liq boshqara olmaganligi sababli agressiv reaksiyalar yuzaga kelishi mumkin.

Agressivlikning yuzaga kelishida oilaviy muhit muhim rol o'ynaydi. Oiladagi nizolar, qo'pollik, e'tiborsizlik yoki haddan tashqari qattiqqo'llik bolaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tengdoshlar bilan munosabatdagi muammolar ham agressiv xulqning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Kamsitilish, rad etilish yoki bullying holatlari o'smirda g'azab va norozilikni kuchaytiradi.

Maktabdagi stress, o'quv yuklamasining ortishi va muvaffaqiyatsizlik hissi ham agressivlikka olib keluvchi omillardan biridir.

Raqamli texnologiyalar va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi media kontentlar ham o'smir psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zo'ravonlik sahnalarini ko'p kuzatish agressiv xulqni me'yor sifatida qabul qilishga olib kelishi mumkin.

O'z-o'ziga past baho berish, emotsional yetuklikning shakllanmaganligi va muloqot ko'nikmalarining sustligi ham agressivlikni kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi. Agressiv xulqni kamaytirishda psixologik treninglar, emotsiyalarni boshqarish mashqlari va individual suhbatlar samarali natija beradi. Oila va maktabning hamkorligi esa profilaktik ishlarning muhim qismidir.

O'smirlarda agressivlikning yuzaga kelishi turli psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, uni oldini olishda sog'lom muhit va to'g'ri tarbiyaviy yondashuv muhim ahamiyatga ega.

O'smirlik davriga to'xtaladigan bo'lsak bu davr pedagogik psixologiyasining taniqli namoyondasi B.A.Krutestkiyning fikrga ko'ra, inson ontogenetik kamolotlaridan biri deb hisoblangan bosqichlardan biri o'smirlik davri 11-15yosh oralig'ini o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi. O'smirlik davrida, asosan, bilish jarayonlari yuqori darajada rivojlanadi. Bu yillarda o'smirlar uchun hayot davomida kerak bo'ladigan asosiy shaxsiy va tadbirkorlik xususiyatlari ochiq ko'rinishga boshlaydi. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faol o'ta qiziquvchanlik xamda atrofdagilar o'z layoqotlarini namoyish etish, shuningdek, ulardan yuqori baxo olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilaydi. O'smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. O'smirlarda kattalarga nisbatan yomon munosabatning paydo bo'lishi, noxush xulq-atvor alomatlari, o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar, uning tengdoshlari va turli jamoadagi mavqei, kattalar bilan munosabati maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. O'smirlik davri o'tish davri, krezis davri qiyin davr kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. chunki, bu yoshdagi o'smirlarning xatti-xarakatida muxobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash xollari ham kuzatiladi. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urishqoqlik kabi xususiyatlar xosdir.

Oddiy kundalik hayotda agressiya-zo'ravonlik yoki raqibni yengish uchun vosita sifatida foydalaniladi. Agressiya tushunchasiga o'ziga xos izoh berish qator qiyinchiliklarni tug'diradi, chunki bu termin ko'plab hatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Odamlar biror bir shaxsni agressiv shaxs sifatida tavsiflaganda, uni boshqalarni haqorat qiluvchi, badfe'l, barcha narsani o'zi hohlaganday qilishni istaydigan, o'z g'oyalarni qat'iy himoya qiladigan, yechimi yo'q muammolarga o'zini giriftor qiladigan inson sifatida tairflaydilar. Agressiyaning namoyon bo'lishining ko'plab nazariy asoslari mavjud. Zeygmudning fikricha agressiv xulq o'z tabiatiga ko'ra g'ayri ixtiyoriy va muqarrar. Insonda ikkita birmuncha qudratli instinkt mavjud: jinsiy va o'limga bo'lgan qiziqish. Agar tanatos (o'limga bo'lgan qiziqish) sirtga yo'naltirilsa bu individning tez orada o'zini parchalashiga olib keladi. K.Lorens mavjud barcha jonli mavjudotlarda xususan insonlarda ham mavjud bo'lgan yashash uchun kurashning tumani instinktidan boshlanish nuqtasini oladi. U yashash instinktining manbayi bo'lmish agressiv quvvat, to'satdan, doimiy tezlikda, muntazam tikilgan vujudga keladi degan fikrni aytadi. O'smirlarning tajavuzkor axloqini o'z vaqtida aniqlash bola

shaxsining rivojlanishidagi noxush variantining oldini olish uchun juda zarur hisoblanadi.

Hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lgan o'smirlardagi suidsidga moyillik ko'rsatkichlarining ortishi hamda qarama -qarshi jins vakillari bilan bilgan munosabat oqibatlarining axloq normalariga zidlashib borayotgani psixologiya fanining aynan shu bo'limini chuqur o'rganishga va bu muammolarga yechim topishga undaydi. Bunda asosan o'smir shaxsning qarashlari va xohishlarini o'rganib chiqish kuzatuvchining maqsadga yetishiga imkon yaratadi. Hozirgi kundagi o'smir yoshlarning ko'pchiligi oila davrasidagi muloqotning kamligi otaonasi yokida unga vasiy shaxslar tomonidan bee'tibor bo'lishlari hamda notug'ri muomila yoki noto'g'ri muhitga tushish oqibatida ularda agressiya alomatlari kun sayin tobora kuchayib bormoqda .

Agressiv o'smir, nafaqat atrofdagilarga balki o'ziga ham bir talay muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tajavuzkorlik shaxsning turg'un shaxsiy chizig'iga aylanmasligi uchun bola axloqining xususiyatlarini va hissiy holatini tushinmoq, o'z vaqtida psixokarreksion ishni tashkil etmoq darkor. O'smirlarda agreesiya kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin . Bular:

Ota-onaning o'smir yoshdagi bolaga bo'lgan e'tiborning susayishi. Bunga sabab ongli tarzda dunyoni o'z kuchi bilan o'rganish uchun ota- oan tomonidan erkin zo'nada yokida bo'lmasam biror bir nufuzli talim muassasida o'qitish uchun qat'iy nazoratni kuchaytirish oqibatida Ommaviy axborot vositalarida efirga uzatilayotgan jangari , fantastik, ayniqsa tragediya (oxiri fojiali tugaovchi) film va ko'rsatuvlarning ko'payishi va o'smir shaxsning bu ko'rinishdagi film va ko'rsatuvlarni hech qanday cheklovlarsiz ko'rishini sabab qilib olsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joyizki hozirgi kunda ko'p uchrayotgan o'smir yoshlarimizdagi agreesiv holatlarni yo'qotishdan oldin uning sabalarini yo'qotishimiz vaziyatni to'g'ri baholay olishimiz kerak .Hech narsa o'z – o'zidan bo'lmagandek agreesiya ham shaxslar ayniqsa ,o'smir yoshlarimizda birdaniga paydo bo'lib qolmaydi .Biz buni o'z vaqtida oldini olmasak jamiyatga ham o'z tasirini ko'rsatmay qolmaydi. shuning uchun ham inson tabiatidagi bu ko'rinishni chuqur o'rganish psixologiya fanining bugungi talabiga aylanib bormoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nishonova .Z.T., Kamilova.N.G'.,  
Abdullayeva.D.U., Xolinazarova.M.X. "Rivojlanish yosh psexologiyasi yosh davrlari pedagogik psixologiya " .Toshkent: 2017, 217-b
2. N. Ismoilova .D. Abdullayeva. "Ijtimoiy psixologiya"-Toshkent: 2013. 130-b.
3. Ziyonet